



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Ibragimov Jahongir Toshniyozovich ¹, Nomozova Shoxsanam Abdualim qizi ²

¹ Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi

² Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali 2-kurs talabasi

IJTIMOY ISHCHI VA AHOLINING IJTIMOY ZAIF TOIFALARI

Annotatsiya: ushbu maqolada aholi, jamiyat, ijtimoiy zaiflik, ijtimoiy zaiflik turlari, ijtimoiy ishchilarning aholining ijtimoiy zaif toifalari bilan ishlashning tarixiy shakllari, usullari, yo'nalishlari, vositalari haqida ma'lumot berilgan. Hamda maqola yuzasidan muallifning xulosalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: aholi, zaif, toifa, ijtimoiy ishchi, ijtimoiy siyosat, davlat dasturlari, qatlam, nogiron shaxslar, aloqa, ijtimoiy zaiflik, bandlik, ruxiy, jismoniy.

Ijtimoiy ish o'z hayotiy muammolarini mustaqil hal etishga, aksariyat hollarda yashashga qiynalgan insonlarga yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan faoliyatning o'ziga hos turidir. Jahon tajribasida aholining zaif qatlamlari - qariyalar, imkoniyati cheklangan insonlar, muammoli oilalar, qiyin hayotiy muammolarga duch kelgan insonlar, shu jumladan bolalarga yordamni malakali mutaxassislar- ijtimoiy soha hodimlari tashkil etadilar va amalga oshiradilar. ¹

Ijtimoiy ish sohasidagi mutaxassislar faoliyatini tavsifi ularga nisbatan talabning yuqoriligi haqida fikr yuritish imkonini beradi. Respublikaning bozor iqtisodiyoti tizimiga kirishining o'zi ijtimoiy ishchilarga nisbatan ehtiyoj paydo bo'lishini ta'minladi. Bundan tashqari, bugungi kunda respublikadagi barcha faoliyat yurituvchi ijtimoiy boshqarish organlarida ijtimoiy ma'lumotga ega bo'lmagan mutaxassislar ishlab kelmoqda. Ijtimoiy ishchilarni mavjud boshqa turli ta'lim shakllari bo'yicha tayyorlanilishi respublikada davlat ijtimoiy

¹ Yusupov R.K. Ijtimoiy ishga kirish. O'quv qo'llanma. - Samarqand: SamDU nashri, 2020. - 5-bet

siyosati bo'yicha kadrlarni ta'minlash borasidagi muammolarning hal etilishi imkonini beradi.

Har qanday sharoitda ham ta'rif o'zida qadriyatlar yo'nalganligini, ijtimoiy ishchi yondashadigan pozitsiyalar, ijtimoiy ish mohiyati to'g'risidagi nazariyalar, masalan mazkur kasbning jamiyatdagi roli yoki uning boshqa fanlar bilan aloqasi to'g'risidagi sotsiologik nazariyalarni aks ettiradi. Shunday ta'riflardan birini keltirib o'tamiz: ijtimoiy ish – bu individ, guruh yoki jamoatchiliklarga ijtimoiy hayotda o'zlarini namoyon etish bo'yicha imkoniyatlarini kuchaytirish yoki tiklashga, ular uchun eng ma'qul ijtimoiy sharoitlarniya aratishga kasbiy salohiyat bilan yordam ko'rsatishdan iborat bo'lgan faoliyatdir. Ijtimoiy soha rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari, aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlamni himoya qilishni kuchaytirish va keksalar hamda imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash kabilar ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassislar faoliyatiga tegishli.²

Aynan ijtimoiy ish soha xodimi aholi bilan bevosita faoliyat olib boradi. Aholi - Yer yuzida yoki uning muayyan hududi, qit'a, mamlakat, tuman, shaharda istiqomat qiluvchi odamlar majmui. Bugungi kunda aholi muammolari odamlarning biologik xususiyatlari, insonlarning atrof-muhit bilan o'zaro aloqasi, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy aloqasi bilan bog'liq. Chunki aholining mehnatga yaroqli qismi jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchidir. Aynan og'ir vaziyatga tushib qolgan insonlar aholining zaif toifalarini tashkil etadi. Zaiflik – bu insonning ruhiy, jismoniy, ijtimoiy tomondan imkoniyatlarga ega bo'lmasligi hisoblanadi. Umuman olganda, ijtimoiy ishning maqsadi aholini jumladan, ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamlarni, zaif toifalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilganidir. Zaif qatlam esa, ijtimoiy ish hodimining ob'yekti hisoblanadi. Xususan, ijtimoiy zaif qatlamlarga iqtisodiy, moddiy, tibbiy, huquqiy yordam berish ham, aynan ijtimoiy ishchi hodimining bosh vazifasidir. Shu o'rinda Yangi O'zbekiston strategiyasida ham aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatish muhim omil ekanligi keltirib o'tilgan va bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. Jamoaviy yordam va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning oilasi, jamiyat va davlat bilan o'zaro aloqasini kuchaytirish, ularning qulay muhitda bo'lishi, shahar yo'lovchi transporti, ijtimoiy va boshqa infratuzilma ob'yektlaridan tekin foydalanish uchun zarur sharoitlar yaratish bu boradagi islohotlar ta'sirchanligini oshiradi.³

Bugungi kunda qonun loyihalarida ham aholining ijtimoiy zaif qatlami tushunchasi berilgan bo'lib, unga ko'ra tovarlarni, ya'ni xizmatlarni xarid qilishda yoki mehnat bozorida ish topishda qiyinchilikka duchor bo'layotgan yoxud o'zgalarning ko'magiga muhtoj shaxslar zaif qatlam hisoblanadi. Hujjat loyahasiga ko'ra, ushbu qatlamga quyidagilar kiradi:

- I va II guruh guruh nogironligi bo'lgan shaxslar, nogiron bolalar;
- yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar;
- ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan bo'lgan kasalliklar va atrofdagilar uchun xavf tug'diradigan kasalliklar (sil, onkologik, psixiatrik, narkologik, endokrinologik, infeksiyon, OITS, moxov va b.)ga chalingan shaxslar;
- qaramog'ida 16 yoshga to'lmagan yoki nogironligi bo'lgan bolalari bo'lgan yolg'iz shaxslar;

² M.X. Ganiyeva, Q.N.Qayumov, M.B.Sherov. "Ijtimoiy ishga kirish" TOSHKENT -2020. 212-bet.

³ Sh. Mirziyoyev Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2021 yil 201-bet.

- o‘qishni tugatgandan keyin 3 yildan oshmagan umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi muassasalari bitiruvchilari;
- “Mehribonlik” uylarining 30 yoshga yetmagan bitiruvchilari;
- jazoni o‘tash muassasalaridan ozod qilingan shaxslar;
- o‘zgaralar parvarishiga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz keksalar va yolg‘iz yashovchi keksalar;
- muomalaga layoqatsiz va muomala layoqati cheklangan shaxslar.

Ushbu qatlamlar aholining ma’lum darajadagi zaif qatlamlari hisoblanib, ijtimoiy ishchilarning obyektlaridir. Mening fikrimcha, bunday qatlamlarni yo‘qotish, umuman olganda, ularning bugungi kundagi sonini kamaytirish uchun ijtimoiy sohani yanada kengaytirish zarur.

Ijtimoiy zaiflikning ham ruhiy, jismoniy va ijtimoiy turlari mavjud. Ruhiy zaiflik xususan, psixologik yordamga muxtoj bo‘lgan shaxslar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Jumladan, ularga aqli zaif insonlar, ya’ni aqliy rivojlanishida nuqsonga ega bo‘lgan shaxslar kiradi. Jismoniy zaif insonlar, ular umuman harakat qilish jarayoni uchun imkoniyatlari ma’lum darajada cheklanganlardir. Ular nogironligi bo‘lgan shaxslar hisoblanadi. Ijtimoiy zaif insonlar ko‘rish, eshtish va og‘ir nuqsoni bor bo‘lgan insonlardir. Umuman olganda bunday zaif toifalarning mavjudligi jamiyat, mamlakat rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu zaif toifalarini kamaytirish ijtimoiy ishchining birinchi o‘rindagi vazifasi hisoblanadi.

Yordamga muhtoj qatlamlarga, shu jumladan zaif toifalarga yordam ko‘rsatishning tarixiy shakllari ham mavjud. U dastlab qadimda xayriya ko‘rinishida yuzaga kelgan va kambag‘allarga bepul non tarqatish, kiyim-kechak va boshqa narsalarni tarqatish orqali namoyon bo‘lgan.

Aholining alohida qatlamlari va guruhlari bilan ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular quyidagilar:

1. Mijozning o‘zgarishlariga nisbatan ehtiyoji va birlamchi aloqasining o‘rnatilishi. Bunda ijtimoiy xizmatchi yordamga muhtoj kishi o‘z muammosini nimada ekanligini anglab yetmaganligi bilan to‘qnash keladi. Ijtimoiy xizmatchi mijozning e’tiborini nima sababdan u muammoning mavjudligini inkor etayotganiga qarab taktik ravishda muammoning aynan borligini ko‘rsatib berishi mumkin bo‘ladi.

Ya’ni bunda ijtimoiy xizmatchiga o‘z mijoz bilan avvalo yaxshi aloqaga kirishishini talab etadi va ishonchiga kira olishi ham muhimdir.

2. Muammoni tadqiq etish va tushuntirish. Bu jarayon mijoz yuzaga kelgan vaziyatda chindan ijtimoiy xizmatchi unga yordam bera olishini tushungan vaqtdan boshlanadi. Bunda xodim mijozining muammolarini eshitib, unga qanday turdagi yordam kerakligini anglab yetadi.
3. Rag‘batlantirish. Ijtimoiy xizmatchi mijoz bilan birgalikda uning holatini baholab, ijtimoiy tashxis qo‘yadi. Ya’ni anglab yetganimizdek, yordam turini aniqlaganimizdan keyin unga tashxis qo‘yiladi.

4. Muammoni konseptual asoslash. Bunda ijtimoiy xizmatchi va mijoz maqsadlarini aniq belgilab olishlari, unga erishish uslublari va amalga oshiriladigan vazifalar aniqlab olinadi.⁴

Xullas ushbu xususiyatlar ijtimoiy ishchining vazifalarini belgilab beradi.

Ijtimoiy ishchilar aholining ijtimoiy zaif toifalari bilan ishlashda bir qancha usullar orqali yordam ko'rsatadi. Masalan, nogironligi bo'lgan shaxslarga alohida xizmat ko'rsatish, aqliy zaif bolalar bilan alohida, ya'ni maxsus yordam ko'rsatiladi. Bunda uyda yordam ko'rsatish, maxsus ta'lim muassasalarida, yordamchi maktablarda, maktab-internatlarida, hamda alohidalashtirilgan holda (inklyuziv ta'lim) yordam ko'rsatiladi. Har bir ijtimoiy ko'makka muhtoj insonga alohida shaklda yondashuv o'zining ko'plab afzalliklari bilan birgalikda noqulaylik tomonlariga ham ega.

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yil 1-yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasida yashovchi doimiy aholi soni **35 271,3** ming kishini tashkil etgan. Aholining yosh guruhlari bo'yicha taqsimotiga e'tibor qaratsak 0 dan 19 yoshgacha bo'lganlar — **37,1 %** va 60 dan katta yoshlilar **8.8 %** va o'rta yosh toifasi bo'lgan 20 dan 60 yoshgacha bo'lganlar **54.1%** ni tashkil etmoqda.⁵

Ma'lumotni ijtimoiy jihatdan tahlil qilganda, jami aholi sonidan **45.9%** qismi ijtimoiy xavf-xatar ehtimoli ostidagilar bo'lib, ijtimoiy ishchilarning maqsadli mijozlari toifasi hisoblanadi. Bu toifa orasida **29.7%** qismi yoki (10 million 518 ming 483 nafar) bolalar, **7.4%** qismi (9 миллион 685 минг 564 нафар) o'smirlar va **8.8%** qismi keksalardan iborat bo'lib, ijtimoiy muhofazaga eng muhtojlardir. Ya'ni, mehnatga layoqatlilik nuqtai nazaridan mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar — **31,2 %** va mehnatga layoqatli yoshdan kattalar — **11,2 %**, jami **42.4%** aholi o'zi uchun o'z kuchi bilan hayotiy ehtiyojlarga zarur ne'matlarni mustaqil yarata olmaydilar.⁶

Mamlakatimizda ijtimoiy siyosat borasida juda ko'plab chora – tadbirlar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, lekin ularga aniq shaklga ega tizimli ijtimoiy muhofaza tizimi yaratilmagan. Bundan tashqari zaif oila va bolalarni qo'llab-quvvatlash va aholini ijtimoiy himoya qilish uchun yagona davlat idoralari tashkil qilinmagan.

Ijtimoiy muhofaza vazifalarini bajaruvchi aniq mutaxassislar guruhi va tarkibi aniq belgilanmagan, ular uchun zarur malaka va bilim majmualari aniq belgilanmagan, bu toifa mutaxassislari uchun aniq faoliyat maydoni belgilanmagan.

Bu holat mamlakatimizda urbanizatsiya darajasi nisbatan past bo'lganligi tufayli⁷ shaharlashmagan aholi qismi uchun ko'proq e'tibor qaratishni talab etadi. Qishloqlarda yashovchi aholining maishiy ahvoli turli sabablarga ko'ra yanada ko'proq e'tibor qaratishni talab qiladi. Jumladan

- ✓ Transport infratuzulmasining kam rivojlanganligi;
- ✓ Sog'liqni saqlash muassasalarining markazlashtirilganligi sabab uzoq hududlardan kelishda muammolar;

⁴ Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta'minotga kirish: Darslik/ A.V. Vaxabov, Sh.Sh.Zaxidova, B.B.Baxtiyorov, D.Sh.Odinayev, J.N.Fayzullayev; T.: Iqtisod-Moliya, 2018. – 36-bet

⁵ https://t.me/statistika_rasmiy/2411

⁶ https://t.me/statistika_rasmiy/2411

⁷ Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra 01.01.2022-yil holatida 17353 ming kishi qishloq joylarida istiqomat qiladi.

- ✓ Ta'lim muassasalari(turli darajada)ning mutaxassislar bilan ta'minlanish darajasi;
- ✓ Turli kommunal xizmatlar taqdim etishda kamchiliklar;
- ✓ Ichimlik suvi, gaz, elektr energiyasi va boshqa energiya resurslarida taqchillik;
- ✓ Aholi tomorqalari fermerlarga olib berilishi natijasida qishloq aholisining chorva va parranda, dehqonchilikning boshqa ne'matlarini yaratishda imkoniyatlari to'silganligi yoki cheklanganligi;
- ✓ Kasanachilik va mayda hunarmandchilik faoliyati, o'z-o'zini band qilish uchun yetarlicha imkoniyatlar yaratilmagan. Aniqroq aytadigan bo'lsak, shahar bilan bir xil sharoitlar nazarda tutilgan, qishloqning alohida shart-sharoitlari e'tiborga olinmagan.

Harakatlar strategiyasida aholini ijtimoiy muhofaza qilish, ularga qulay ish sharoitlarini yaratib berish chora-tadbirlarini amalga oshirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.⁸

Hozirgi davrda aholining zaif toifalari, shu bilan birga mavjud toifalarning bandligini ta'minlash ham alohida e'tiborga olinmoqda. Bundan tashqari Prezidentimizning farmoni bilan Harakatlar strategiyasiga muvofiq ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish bo'yicha quyidagi qaror qabul qilingan:

- ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarni izchil olib borish, ijtimoiy himoyasi va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish.⁹

Ushbu qarorlarning qabul qilinishi bevosita aholining zaif toifalarini yanada qo'llab-quvvatlashga imkon yaratadi.

Jamiyatlar mavjud bo'lar ekan ijtimoiy muhofazaga muhtojlar har doim mavjud bo'ladi. Chunki, har qanday kuchli ildizga ega daraxt ham qachondir himoyaga muhtoj nihol bo'lgan va qachondir birozgina kuchli shamoldan ham egilib, sinish darajasiga kelib qoladi. Ertangi porloq kelajak haqida orzu va reja qilishda U kelajak bugun yosh nihol ekanligini unutmaslik kerak. Bugun xasta-bemor yoki qandaydir sababga ko'ra nogiron bo'lib qolgan yohud ishi bilim-malakasi kamligi tufayli inqirozga uchrab qolgan inson vaqti kelib oyoqqa turishi va jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shishi mumkinligini e'tiborga olish, keksalik sabab ijtimoiy-iqtisodiy faollikdan chetlashib qolgan insonlar kelajak tarbiyachilari ekanligini, ularning hayotiy tajribalari avlodlar o'rtasida ko'priq bo'lishini teran anglashimiz lozim.

Bir qator savollar va muammolar o'z yechimini kutmoqda.

1. Ijtimoiy muhofaza vazifalarini bajaruvchi aniq mutaxassislar guruhi va tarkibi aniq belgilanmagan;
2. Ular uchun zarur malaka va bilim majmualari aniq belgilanmagan;
3. Bu toifa mutaxassislari uchun aniq faoliyat maydoni belgilanmagan.

⁸ Sh.Mirziyoyev Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2021. – 26-bet.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha” farmoni. <https://lex.uz/docs/-3107036>

Aynan ana shu omil yurtimizda ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda eng asosiy tayanch nuqta vazifasini bajara oladigan turli darajadagi ijtimoiy ishchilar tayyorlash tizimini kengaytirish va rivojlantirishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxati

1. Sh.Mirziyoyev Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2021. - 464 bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha” farmoni. <https://lex.uz/docs/-3107036>
3. Ijtimoiy xizmat. D.Raxmonov. Uslubiy qo'llanma. Samarqand: SamDU nashri, 2007. - 164 b.
4. Yusupov R.K. Ijtimoiy ishga kirish. O'quv qo'llanma. - Samarqand: SamDU nashri, 2020. - 268 bet.
5. Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta'minotga kirish: Darslik/ A.V. Vaxabov, Sh.Sh.Zaxidova, B.B.Baxtiyorov, D.Sh.Odinayev, J.N.Fayzullayev; T.: Iqtisod-Moliya, 2018. – 168 b.
6. Ganiyeva Ma'rifat Xabibovna, Kayumov Qaxramon Nozimjonovich, Sherov Ma'ruf Boltayevich. Ijtimoiy ishga kirish. Darslik – Toshkent: VNESHVESTPROM nashriyoti. 2020. – 276 bet.
7. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi - <https://www.mineconomy.uz>
8. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi - <https://stat.uz/uz/>